

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**XALQ OG`ZAKI IJODI: DOSTONLAR HAQIDA. O`QUVCHILARNING
DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA DOSTONLARNING AHAMIYATI**

Ashurova Manzifa Xolmurod qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti o`zbek tili va adabiyoti
yo`nalishi 2-bosqich talabasi
Ashurova Manzura Xolmurod qizi
Termiz davlat universiteti boshlang`ich
yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og`zaki ijodida dostonlarning tutgan o`rni, dostonchilik va baxshichilik maktablari, dostonlarning yaratilish tarixi, ularning mazmunan turlarga bo`linishi, folklorshunos olimlarning bu sohaga qo`shgan hissalari, o`quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda dostonlarning ahamiyatini oshirish haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Xalq og`zaki ijodi, dostonlar, dostonchilik maktablari, baxshichilik maktablari, timsol va tavsiy, „Alpomish”, „Kuntug`mish”, „Rustamxon”, „Go`ro`g`li”, „Ravshan”, ijro usullari, baxshi, jirchi, jirov, epos, xalfa, qahramonlik dostonlari, ishqiy- romantik dostonlar, jangnoma dostonlar, kitobiy dostonlar va tarixiy dostonlar.

Adabiyot juda ko`plab janrlarni o`z ichiga oladi. Shunday janrlardan biri xalq og`zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham katta o`rin egallagan dostonlar hisoblanadi. „Doston” so`zi fors tilidan olingan bo`lib, „hikoya”, „qissa” degan ma`nolarni bildiradi. Xalq og`zaki ijodidagi dostonlar xalqimizning o`tmishidan so`zlovchi yirik manbaalardir. Ularda xalqimizning butun hayoti aks ettiriladi. Dostonlar yaratilish usuliga ko`ra 2 turga: og`zaki va yozma dostonlarga bo`linadi. Yozma adabiyotdagi dostonlar masnaviyda yozilib, yakka shaxsning qalamiga mansub bo`ladi. Alisher Navoiyning „Xamsa” turkumidagi besh dostoni, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg`u bilig” dostoni ana shu shaklda yaratilgan. Og`zaki dostonlar folkloarning bir qismi bo`lib, uning aytilish usullari va qonun-qoidalari ham o`ziga xosdir. Avvalo, og`zaki dostonlarda she`riy va nasriy parchalardan iborat bo`lgan matn bo`lishi va uni kuylovchi odam do`mbira yoki qo`biz chala olishi kerak. Doston kuylovchi shaxslar baxshi, jirov, jirchi, Xorazmning ayrim hududlarida xalfa deb ataladi. Ular o`zlari kuylayotgan doston matnlarini yod olib, unga kuy bastalashadi va do`mbira yoki qo`biz jo`rligida ijro etishadi. Necha yillardan beri davom etib kelayotgan ustoz-shogird ananalari asosida yuzaga kelgan doston ijrochiligidagi uni kuylovchi shaxsning badiiy mahorati, notiqlik va aktyorlik qobiliyati, ovoz imkoniyatlari katta ahamiyatga ega. Xalq og`zaki ijodiga „Alpomish”, „Ravshan”, „Rustamxon”, „Kuntug`mish”, „Go`ro`g`lining

tug`ilishi”, „Malikayi ayyor”, „Oshiq G`arib va Shohsanam” kabi noyob durdonalarni keltirish mumkin.

Xalq og`zaki ijodidagi dostonlarni asosan baxshilar kuylaydilar. „Baxshi” so`zining „O`zbek tilining izohli lug`ati”da to`rt xil ma`no berishi aytib o`tilgan:

1. Donishmand, bilimli odam;
2. Dostonlarni kuylovchi shaxs;
3. Bemorlarni dam solib davolovchi tabib;
4. Buxoro xonligida qurilish mablag`larini nazorat qiluvchi amaldor.

Hodi Zaripovning bergan ma`lumotlariga qaraganda, baxshi so`zi mo`g`ulcha va buryatcha bo`lib, „baxsha” ya`ni „ustod”, „ma`rifatchi” degan ma`nolarni bildiradi.

Qadimdan odamlar doston kuylovchilarni qattiq hurmat qilishgan va ularga shunday maqom berishgan. O`zbek dostonchilikida doston kuylash usullari uch yo`nalishda shakllanib kelgan.

1. Shahrисабз, Qамay, Qо`рг`он, Bulung`ur, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o`zbek-laqay dostonchilik maktablari. Bu yo`nalishda dostonlar yakka holda do`mbira chertib bo`g`iz ovoz bilan ijro etiladi.

2. Xorazm dostonchilik maktablari. Tor, dutor, g`ijjak, garmon, bulamon, qo`sнay, doira jo`rligida ba`zan yakka, ba`zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etiladi.

3. Farg`она dostonchilik maktablari. Dutor jo`rligida ochiq ovozda ijro etiladi. Bu yo`nalishlarning har biri o`zining mashhur baxshilariga va usullariga ega.

Bir qator folklorshunos olimlarning tasnifiga ko`ra dostonlarni mazmunan 5 ta guruhga ajratish mumkin: qahramonlik dostonlari, ishqiy-romantik dostonlar,

jangnomal dostonlar, kitobiy dostonlar, tarixiy dostonlar. Dostonlarni bu tariqa guruhlarga ajratish uning mazmuni dagi do`stlik, qahramonlik, sarguzasht, sevgi-muhabbat g`oyalariga asoslanadi.

Qahramonlik dostonlari. Qahramonlik dostonlari folklorshunoslikda katta o`rin egallaydi. Nafaqat bizda balki boshqa xalqlarda ham qahramonlik dostonlari yuksak baholanadi. Yunonlarning „Odyssey”, „Illiada” dostonlari, qirg`izlarning „Manas” eposi shu jumladandir. Bu yo`nalishga kiruvchi doston qahramonlari favquloddagi kuch-qudrat sohibi, yurt tinchligi, ozodligi, or-nomus himoyachisi sifatida gavdalantiriladi. Bu jarayonlarda ular turli sinov, qiyinchiliklarga duch kelishadi, jang sahnalarida qahramonlik ko`rsatishadi. Xalq og`zaki ijodining gultoji hisoblangan „Alpomish” dostoni ham shu shaklda ifodalangan.

Ishqiy-sarguzasht dostonlar. Bu yo`nalishdagi doston qahramonlarining sevgi-muhabbatlari ilohiy tarzda namoyon bo`ladi. Ular o`z mashuqalariga yetish uchun turli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Bu yo`lda qiyinchiliklarga duch kelishadi, dushmanlar qo`liga asir tushishadi. Mardonavor kurashib asar so`ngida o`z murod-maqsadlariga yetishadi. „Ravshan”, „Kuntug` mish” dostonlari ishqiy-sarguzasht dostonlarning go`zal namunasidir.

Jangnoma dostonlarida asosiy tasviriyo voqealari jang sahnalari bo`ladi. Xalq og`zaki ijodida bunday dostonlar kam uchraydi. Bundagi jang, kurash jarayonlari, afsonaviy qahramonlar ko`rsatgan jasoratlari, ularning botirliklari baxshilar tomonidan fantastik usulda bo`rttirib kuyylanadi. „Alibek bilan Bolibek”, „Yusuf bilan Ahmad”, „Qirq ming” kabi eposlar xalq og`zaki ijodidagi jangnoma dostonlarning noyob durdonalari sanaladi.

Kitobiy dostonlar. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yozma va og`zaki adabiyotlar ijodiy hamkorligida yangi yo`nalish paydo bo`ldi. Kitobiy dostonlarda og`zaki ijoddagi fantastik tasvir bilan yozma adabiyotdagi individual tasvir uyg`unlashgan edi. „Sayyod va Hamro”, „Oshiq G`arib va Shohsanam”, „Vomiq va Uzro” dostonlari shu usulda yaratilgan.

Tarixiy dostonlar. Boshqa janrlarda bo`lgani kabi dostonlarda ham tarixiy voqealar aks ettiriladi. Ancha yillar ilgari sodir bo`lgan voqealar beqiyos tarzda baxshilar tomonidan kuyga solinadi. „Oysuluv”, „Oychinor”, „Tulumbiy”, „Shayboniyxon”, „Namoz”, „Mamatkarim polvon”, „Jizzax qo`zg`oloni” kabi dostonlar tarixiy dostonlar safiga kiradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, dostonlarning paydo bo`lishi qadim tarixga ega. Ularda xalqimizning yashash tarzi, urf-odatlari, qadriyatları, o`tmishi, tili, dini, madaniyati aks ettiriladi. Shunday ekan dostonlarni o`rganish, o`sib kelayotgan yosh avlodga o`rgatish barchamizning vazifamizdir. O`quvchilar asosiy bilimni ta`limning tayanch bo`g`ini hisoblangan maktabda olishadi. Maktab darsliklariga xalq og`zaki ijodi, shu jumladan dostonlarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir. O`quvchilar dostonlarni o`qib, o`zlariga yetarli xulosalar chiqarib oladilar. Doston qahramonlaridagi mardlik, jasurlik, yurtga sadoqat, oilaga mehr-muhabbat, or-nomus, do`stlik, saxovatlilik, barchamizga o`rnak bo`larli darajada aks ettirilgan. Dostonlar o`quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, ma`naviyatini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi globallashuv, internet tarmoqlari rivojlangan zamonda milliy mafkuramizni sof holda saqlashning birdan bir yo`li adabiyotimizni, o`zbek folklorini targ`ib qilishni kuchaytirishimiz darkor. Har bir dostonni mutolaa qilar ekanmiz, asar boshidanoq qahramonlarning dunyosiga tushib qolgandek bo`ladi, u bilan birga kurashadi, birga xursand bo`ladi, birga aziyat chekadi. Dostonlar bevosita inson ruhiyatiga ham ta`sir ko`rsatadi. Dostonlar insonlarga ma`naviy tarbiya beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. – T.:O`qituvchi, 1990.-B.227-268.
- 2.Жирмунский В.М., Зарипов Х.Т. Узбекиский народний героический эпос.- Москва, 1947.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

- 3.Hodi Zarif. Fozil shoir – mashhur dostonchi /O`zbek xalq ijodi bo`yicha tadqiqotlar . 3-kitob: Fozil shoir.- T.:Fan, 1973, B.5-29.
- 4.O`zbek folklorining epik janrlari / O`zbek xalq ijodi bo`yicha tadqiqotlar. 7-kitob, -T.: Fan, 1981.
5. Saidov M. O`zbek dostonchiligidagi badiiy mahorat. – T.: Fan, 1969.
6. Ro`zimboyev S. Xorazm dostonlari, - T.: Fan,1985.
- 7.Muhammadnadir Saidov – ma`rifat fidoyisi, - T.: MUMTOZ SO`Z, 2009. –B.5-91.
- 8.Namangan xalq og`zaki badiiy ijodi namunalari / To`plovchi va nashrga tayyorlovchilar: T.G`oziboyev, A.Sobirov. – Namangan,1993.